

Fan:Tarix

Sana: 4.03.2013

Sinf:6-“G”

Mavzu:Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati

Maqsad:

-o'quvchilarga Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati haqida ma'lumot berish;

-o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

-o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirish;

Dars turi:yangi tushuncha,bilimlarni shakllantirish.

Dars metodi:Blits-so'rov,suhbat metodi.

Dars jahozi:darslik, dunyoning siyosiy xaritasi, texnik vosita

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

O'quvchilarni darsga jalb etish,tezkor o'rnatish,raqamlar bilan 1,2,3 raqamlar bilan sinf o'quvchilarni guruhlarga ajratish. 5 daqiqa

2. O'tilgan mavzuni takrorlash.

O'tilgan mavzu: Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi.

Bu o'rinda Blits-so'rov metodidan foydalaniladi. 10 daqiqa

Har bir o'quvchiga quyidagi jadval beriladi.

Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini tashkil etishga , mantiqiy fikrlashga o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab oladi.

t/r		Salavkiylar davlati	Yunon-Baqtriya
1	Diodot qaysi davlatga hukmronlik qilgan?		+
2	Salavka qaysi podsholik hukmdori?	+	
3	Antiox mil. avv. 280 yilda qaysi davlatga hukmronlik qilgan?	+	
4	Qaysi davlat 120 yil hukmronlik qilgan?		+
5	Qaysi davlatda tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan?		+
6	Diodotdan keyingi Yevtidem qaysi davlatga hukmronlik qilgan?		+
7	Yuechji qabilalari tomonidan qaysi davlat bosib olingan?		+
8	Antiox qaysi davlat hukmdorining o'gli?	+	
9	Mesopotamiya, Eron, Parfiya lar qaysi davlat tarkibiga kiradi?	+	
10	Mil. avv. 140-130 yillarda qaysi davlat bosib olinadi?		+

O'quvchilar bilimi quyidagicha baholanadi:

- 9-10 ta to'g'ri javobga 5 ball
- 7-8 ta to'g'ri javobga 4 ball
- 4-6 ta to'g'ri javobga 3 ball
- 2-3 ta to'g'ri javobga 2 ball
- 0-1 ta to'g'ri javobga 1 ball

III. Yangi mavzuni tushuntirish 7 daqiqa

Reja:

1. Qadimgi Xorazm
2. Qang' davlati
3. Dovon davlati.

Qadimgi Xorazm.Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm ahamoniylar davlatidan mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o'lka aholisi xo'jaligining asosini dehqonchilik tsahkil etgan.

Xorazm shaharsozlik boshlanishi miloddan avvalgi VII asrga borib taqaladi(ko'zaliqir shahri xarobalari).Xorazmda asosan Hunarmandchilik yuksak darajada rivoj topgan. Kulolchilik, temir, mis, asboblar, qurollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo'lgan.

Qadimgi Qang' davlati.Xitoy manbalarida bu davlatning Qang'yuy deb atalgani ma'lum. Miloddan avvalgi III asrda unga saklar asos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha Toshkent viloyatining oqqa'rg'on tumanidagi qang'ha shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti Qang'dez bo'lib, unga miloddan avvalgi III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan.

Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan edi. Miloddan avvalgi II asr oxirida Qang' qabilalarning eng qudratli dvalat birlashmasiga aylandi.Uning hukmdorlari hatto o'z nomidan tanga zarb qiladi. Qang' davlatida ulkan istehkomlar, qal'a, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik mahallalri barpo etiladi.

Dovon davlati. Dovon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot xitoy yilnomalarida uchraydi va ular milodiy I-II asrlarga doirdir. Bu davlat taxminan , miloddan avvalgi III asrdn to milodiy II asrgacha mavjud bo'lib Farg'onada joylashgan.

Qadimshunoslар topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi malumotlarni tasdiqladi: miloddan avvalgi II-I asrlarda Farg'ona Yuksak taraqqiy etgan, aholisi ko'p sonli, yaxshi quollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlarga ega davlat bo'lgan.

Farg'ona davlatining Sho'rakashat, Uchqo'rg'on singari va boshqa shaharlari atrofidagi aholisi yerni ishslash , sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katt yutuqlarga erishgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.15 daqiqa.

Darsning bu bosqichi o'quvchilarning matn ustida ishlab, ulardag'i eng muhim fikr va ma'lumotlarni ajratib olish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadini ko'zda tutadi. Bu bosqichda klaster usulidan foydalaniladi.

Qadimgi Xorazm
Mil.avv .VII a.-mil. IV a.
Ko'zaliqir, Tuproqqa'l'a

Hukmdorlari:

- mil.avv. VI asrda Saksafar
- mil.avv. IV asr Farasman
- mil. III a. Arusmaxa I, Vazyamar

Hududi:

Amudaryo quyi oqimi Xorazm,
Qoraqalpog'iston, Toshovuz
viloyati.

Asosiy xususiyatlari:

- Qadimgi Sharqning ilk sivilizatsiyalaridan biri;
- O'ziga xos madaniyatga egaligi;
- O'rta Osiyodagi dastlabki yozuvning paydo bo'lganligi
- Yirik sug'orish inshootlarining mavjudligi;

Qang' davlati
Mil. av. III a.- mil. III a
Qang'ha, O'tror

Hududi:

Toshkent vohasi, Chimkent vil., Sirdaryoning quyi havzasi

Asosiy xususiyati:

Saklarning yunon- makedon hukmronligiga qarshi kurashda davlatning tashkil topishi

Madaniyati:

- Qovunchi madaniyati
- Qang' xarobasi
- Choshtepa yodgorliklari

Dovon davlati
Mil.avv III a.- mil. II a
Ershi sh.

Hukmdorlari:
Mil. avv. II a Mug'va,
Motsoy

Hududi:
Farg'ona vodiysi

Asosiy xususiyati:
-Shahar-davlat yoki voha
davlatlarning erkin ittifoqidan
tashkil topgan.
-tanga pullar zarb etilmagan, pulsiz
ayirboshlangan;
- oliy kengashning katta mavqega
egaligi.

Madaniyati:
-Sho'rabaht, Uchqo'rg'on
-70 ta obod shaharlari bo'lgan;
-“Samoviy otlar”

Toponomikasi:
- Kicik viloyat(hind)
- “tog' oralig'idagi
vodiyy”
- “Atrofi berk
soylik”(fors)

V.O'quvchilarini baholash: Hisobchi yordami orqali umumiy ballar e'lon qilinadi. 3 daqiqa

VI. Uyga vazifa. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati mavzusining diniy e'tiqod , me'morchilik va san'at rejalari asosida tayyorgarlik ko'rish, internet axborotlarini olib kelish. 5 daqiqa